MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TA’LIM SIFATI VA NATIJAVIYLIGI

G.T.Boymurodova
Buxoro davlat pedagogika instituti
p.f.d.(DSc) professor
Email: gulzoda1976@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqolada yangi O‘zbekistonda bola shaxsini rivojlantirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari va maktab ta’limi faoliyati uyg‘unligini ta’milash, bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari va bilim, ko‘nikmani baholash to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. SHuningdek, bolalarni o‘zlashtirish ko‘nikmasini xalqaro baholash dasturlari asosida baholash, zamonaviy yondashuvlanir amaliyotga joriy etish hamda natijaviylikni ta’minlashning pedagogik asoslari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim natijasi, o‘zlashtirish ko‘rsatgichlari, maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi, integrasion yondashuv, “Ilk qadam davlat dasturi” hamda “Ilm yo‘li” variativ dasturi, bolalarni makatab ta’limiga tayyorlashning , pedagogic shart-sharoitlari.

Abstract. This article discusses the development of the child's personality in the new Uzbekistan, the integration of early childhood education institutions and school education, the unique features of forming learning skills, and the assessment of knowledge and skills. Furthermore, it provides information on the assessment of children's acquisition of skills based on international evaluation programs, the implementation of modern approaches in practice, and the pedagogical foundations for ensuring effectiveness.

Key words: educational outcomes, acquisition indicators, early childhood education, school education, integrative approach, "First Step State Program," "Path of Knowledge" variable program, preparation of children for school education, pedagogical conditions.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktab faoliyatini integrativ faoliyatni yo‘lga qo‘yish, bolani maktabga tayyorlash vaziyatlarini muammosiz yuzaga kelishiga katta yordam beradi. Chunki maktablarning 1-sinf o‘qituvchisi maktabgacha yoshdagi bolani qabul qilishda uning oiladami, bog‘chadami, maktabgacha ta’limni to‘liq olganligidan xabardorligi va o‘quv faoliyatining ma’lum bir ko‘nikmalariga ega bo‘lsa ham ma’lum muddatgacha bola maktabgacha yoshdagi davrning o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qiladi. U hali o‘quv faoliyati uchun kerakli bo‘lgan faoliyatini namoyon qila olmaydi va bu xislatlarni o‘quv jarayoni davomida egallshi davom etadi. Bolaning maktab hayotiga kirishishi uning maktab ta’limiga tayyorgarlik ko‘rishi bosqichli davom etadi. Ta’kidlanganidek, integrasion faoliyatni olib borishda boshlang‘ich sinfda, asosan ta’limning birinchi yilida maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy va unga ma’qul keladigan faoliyat turi o‘yinlar ekanligini hisobga olgan holda o‘yin usullaridan foydalanish, kengroq qo‘llash o‘quv faoliyatining boshqa muhim ko‘nikmalarini hosil qiladigan rivojlantiruvchi muhitni yaratish zarur.

Maktabgacha ta`lim tashkiloti va boshlang‘ich sinflarning amaldagi dasturlari o‘rtasida ma'lum izchil aloqadorlik borligini ko‘rsatadi. Bunda dasturlardagi nazariy birlik, prinsiplar, tarbiya maqsadi va vazifalariga muvofiqlik, hayot bilan bog‘liqlilik, ta'limning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi maqsadlari birligini asos qilib olish mumkin. 1- sinfda o‘qitiladigan ona tili, matematika, atrofimizdagi olam, tarbiya kabi fanlari o‘quv dasturlari yoki tayyorlov sinflari dasturlarini maktabgacha ta’lim davlat dasturlari bo‘limlari bilan bog‘liq umumiy natijaga erishish sifatini takomillashtirishni ko‘rsatadi.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, quyidagicha tahlilga e’tibor qaratamiz maktabda ona tili va o‘qish fanlariini o‘qitishga bolalar nutqini, fikrlash doiralarini har tomonlama rivojlantirish g‘oyasi asos qilib olingan. Bolalar bog‘chasida u lug‘atni rivojlantirish, tovushni to‘g‘ri talaffuz qilish va nutqning ifodaliligi, mantiqli nutqni rivojlantirishda amalga oshirish kabilar. Bu Bolani rivojlanishini ta’minlashda maktab va m**aktabgacha ta`lim tashkilotlarida faoliyat izchil tashkil etishning keng** mkoniyatlari borligini ko‘rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ilk o‘qitish bosqichida bog‘chada ham, maktabda ham ularga o‘qishda birdan qat’iy belgilangan talablarni qo‘yish, bola o‘zlashtirishini qiyinlashtirisga olib kelishi mumkin. Biz bolalar bog‘chasi va maktabda ta’lim shaklining quyidagi taqsimotini tavsiya etamiz:

- bolalar bog‘chalarining katta va tayyorlov guruhining – 80-90% o‘yin, 10-20% - mashg‘ulot;
- birinchi sinflarda (1-yarim yillikda) – 60 -70% o‘yin, 40-30 % - dars;
- birinchi sinflarda (2-yarim yillikda) – 20-30 % o‘yin, 70-80% - dars;

Katta va tayyorlov guruh tarbiyachilari mashg‘ulotlarni tashkil etishda bolalarning asosiy o‘yin faoliyatini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini olib boradi va bu 1- sinfda bolalarni ta’limning birinchi bosqichida bola hayoti va faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos maktabgacha shakl va metodlarini saqlab qolgan holda faoliyatni tashkil qilishi lozim. Bunda o‘yin faoliayti bolalar uchun ma’lum muddat yetakchilik qilishi va bundan darhol voz kechmaslik, balki u asta-sekinlik bilan tabiiy holda o‘yin faoliyatidan o‘quv faoliyatiga almashtirib borish kerak.

Barchamizga ma’lumki, bola oilada, bolalar bog‘chalarida, maxsus tashkil etilgan guruhlarda yoki bolalarni maktabga tayyorlov guruhlarida psixologik- pedagogic jihatdan tayyorlashda sharoitning, imkoniyat va aniq natijalarning turlicha ekanligi bolalarning maktab ta’limga tayyorgarligi darajasini aniqlash mezonlarini aniqlashtirib olish hamda ularga asoslanib, 6-7 yoshli bolalarni maktabning 1- sinflariga qabul qilishni yo‘lga qo‘yish zarurligini ko‘rsatadi.

Respublikamizda Prezident raisligida 2024 yil 5 fevralda ijtimoiy sohadagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida maktabgacha ta’lim tizimidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri maktabgacha ta’lim sifatini MELQO (bolalarning o‘zlashtirish sifati va natijasini o‘chash) xalqaro baholash tizimi asosida baholab, keyingi o‘rinda uni milliy darajada yanada tadbiq etish maqsad qilib belgilandi. Ma’lumotlarga ko‘ra, loyiha 2014 yilda YUNESKO, YUNICEF, Brukings instituti va Jahon banki tashabbusi bilan 2023 yil 9-oktyabrdan boshlab, O‘zbekiston bo‘ylab maktabgacha ta’lim sifatini baholash bo‘yicha MELQO xalqaro vositasi asosida ilk bosqich amalga oshirildi. Bu vosita dunyo miqyosida erta yoshdagi bolalarni rivojlantirish va ta’lim sifatini baholashda qo‘llanilib, 2023 yilda O‘zbekiston bo‘ylab 100 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti tasodifiy tanlab olinib, baholash jarayonlari sertifikatlangan mutaxassislar tomonidan amalga oshirildi. Ushbu jarayonning ikkinchi bosqichi 2024 yilda davom etib, 250 ta muassasa qamrab olingan va bolalarning o‘zlashtirish ko‘rsatgichlari aniqlandi.

Respublikamizda 2024 yilning 1-chorak holatiga ko‘ra quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- MELQO xalqaro baholash vositasi O‘zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari va «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturiga muvofiqlashtirildi;
- barcha materiallar raqamlashtirilib, o‘zbek, qoraqalpoq va rus tillariga tarjima qilindi;
- 250 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tanlab olish mezonlari ishlab chiqildi (shahar, tuman (qishloq) hududlari, 5-6 va 6-7 yoshli guruhlarning mavjudligi, genderlik/o‘g‘il bola va qiz bola);
- Jahon bankining xalqaro ekspertlari ishtirokida tasodifiy tanlov (rondom usulida) har bir hududdan 250 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti tanlab olindi;
- 250 Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tanlov natijalari quyidagicha amalga oshirildi: shahar hududi – 68 (24%) tuman (qishloq) hududi – 182 (76%);
- 250 Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining har bir hududdan manzilli ro‘yxati shakllantirildi;
- hududiy boshqarmalarni habardor qilish maqsadida maktabgacha ta’lim sifatini MELQO xalqaro baholash vositasi asosida baholash ishlarini tashkil qilish bo‘yicha Maktabgacha ta’lim agentligining 2024-yil 11-martdagi «Erta yoshdagi bolalar ta’lim sifati va natijalarini baholash bo‘yicha xalqaro MELQO baholash tizimi asosida davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini baholash to‘g‘risida»gi 23-sonli buyrug‘i ishlab

chiqildi va MMTV bilan kelishildi hamda hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazildi;

Olib borilgan tadqiqot natijalari tahlili A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida bo‘lb o‘tgan seminarda Jahon bankining katta iqtisodchisi va MELQO baholash hisobotining hammuallifi Hiroshi Saeki tomonidan e’lon qilingan baholash natijalari quyidagicha:

– Bolalarning ilk matematik ko‘nikmalarini o‘zlashtirish darajasi o‘rtacha 94% ga yetgan;

– Katta va tayyorlov guruhlaridagi bolalarning erta savodxonlik ko‘nikmalari 77% dan yuqori ekanligi qayd etilgan.

2024 yilda davom etadigan baholash dasturida 250 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti tanlab olinib, baholash o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Ushbu tadqiqot O‘zbekistonning ta’lim tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirishda asosiy ma’lumot manbai sifatida foydalaniish, maktabgacha yoshdagi bolalarning birinchi sinfga teng bilim bilan tayyorgarligi aniqlash va rivojlanish sharoitlarini yaratish rejalashtirilganini ta’kidlash lozim.

Barcha metodikalar maktabgacha yoshdagi bolalar yosh xususiyatlari, imkoniyatlari va rivojlanishdagi o‘ziga xosliklar hisobga olingan holda ishlab chiqilgan hamda to‘liq holda maktabgacha ta’lim muassasalari turlari uchun maktabgacha ta’limga qo‘yilgan davlat talablariga mos kelishi e’tiborga olingan va asoslangan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.

2. Grosheva I., Yevstafeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B, Pak S.V, Djanpeisova G.E. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi - T: 2022. 1-81-b.

3. Vohidov M. “Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar psixologiyasi”. -T: 1970.-260 b.

4. Mavlonova R.A. Maktabgacha ta’limning integratsiyalashgan pedagogi-kasi (Metodik qo‘llanma). - T.: 2005.